



## 2021- yil yanvar-fevral oylari uchun Toshkent shahrida qurilish ishlari


Joriy yilning yanvar-fevral oylarida Toshkent shahrida jami **2 935,2 mlrd. so‘mlik** qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2021-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **104,1%** ni tashkil etdi.



### 2021- yil yanvar-fevral oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo‘lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo‘yicha bo‘linadi.

***Ma’lumot uchun:*** qurilish ishlari hajmi bu – o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta‘mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



### Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda



2021- yil 1- holatiga ko'ra qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 8,5 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,3 mingtaga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan **113,7 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **50,0 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **125,7 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **6,5%**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlaringin **121,1 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **43,5 %**) o'sishidir.




**Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish korxonalari  
soni (birlikda)**

	holatiga ko‘ra:		O‘tgan yilga nisbatan, % da
	01.03.2020- yil	01.03.2021- yil	
<b>Toshkent sh.</b>	<b>7265</b>	<b>8539</b>	<b>117,5</b>
<i>tumanlar</i>			
<b>Bektemir</b>	<b>146</b>	<b>180</b>	<b>117,1</b>
<b>Mirzo Ulug‘bek</b>	<b>922</b>	<b>1075</b>	<b>111,0</b>
<b>Mirobod</b>	<b>639</b>	<b>764</b>	<b>116,2</b>
<b>Olmazor</b>	<b>610</b>	<b>710</b>	<b>113,4</b>
<b>Sergeli</b>	<b>477</b>	<b>462</b>	<b>93,4</b>
<b>Uchtepa</b>	<b>539</b>	<b>622</b>	<b>112,0</b>
<b>Chilonzor</b>	<b>963</b>	<b>1098</b>	<b>110,6</b>
<b>Shayxontohur</b>	<b>580</b>	<b>685</b>	<b>111,8</b>
<b>Yunusobod</b>	<b>968</b>	<b>1114</b>	<b>108,5</b>
<b>Yakkasaroy</b>	<b>759</b>	<b>874</b>	<b>112,0</b>
<b>Yangihayot</b>		<b>169</b>	
<b>Yashnobod</b>	<b>662</b>	<b>786</b>	<b>110,5</b>



**Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarining tumanlar kesimida ulushi % da  
01.03.2021- yil holatiga ko'ra**




**Ma'lumot uchun:** shaharda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Yunusobod tuman (13,1 %), Chilonzor tuman (12,9 %) va Mirzo Ulug'bek (12,6 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar- fevral oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **537,2** mld. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilga nisbatan **91,6 %** ga ko‘p bajarilgan bo’lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi ko‘rsatkich darajasidan **2,8 %** punktga kamayib, **18,3%** ni tashkil etdi.




### Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining jamiga nisbatan ulushi, % da



**Ma’lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Olmazor tuman (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 23,1 %i yoki 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 152,1 % ko‘p), Yunusobod (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **19,5 %** i yoki o’tgan yilning mos davriga nisbatan **342,1 %**), va Mirzo Ulug’bek tumanlari (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **15,4 %** i yoki o’tgan yilning mos davriga nisbatan **143,8 %** ) ga to‘g‘ri keldi.



**Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona  
va mikrofirmalarning ulushi, % da**



**Kichik korxona va mikrofirmalar**

■ **2020- yil yanvar-fevral**

■ **2021- yil yanvar-fevral**


Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yil yanvar- fevral oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **69,2** % i to‘g‘ri kelib, 2020- yilning yanvar- fevral oylari ko‘rsatkichiga nisbatan **4,4** % punktga ko‘paydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **112,6** % ni tashkil etgan holda **2 030,7** mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi **12,5** % ni tashkil etdi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **1,7** % punktga kamaygan yoki **367,3** mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. 2020- yilga nisbatan **83,6** % ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektoring ulushi

ulushi % da, mlrd. so‘m



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **82,9** mlrd. so‘m yoki 2020- yilga nisbatan **47,6 %** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2 852,3** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur‘ati **126,7 %** ni tashkil etdi. Ularning shahardagi tutgan ulushi mos ravishda **2,8 %** va **97,2 %** ni tashkil etdi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



Davlat mulki



Nodavlat mulk


2021- yil  
yanvar-fevral

Toshkent shahrida qurilish ishlari




## Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2021- yil yanvar-fevral



66,7 %

Bajarilgan qurilish ishlaringning katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlaringning **66,7** % i yoki **1 958,6** mld. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.



71,7 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **384,9** mld. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **71,7** % ni tashkil etdi.



64,8 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1 315,9** mld. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **64,8** % ni tashkil etdi.



70,2 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **257,8** mld. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **70,2** % ni tashkil etdi.



**Hududlar kesimida qurilish ishlari  
2021- yil yanvar-fevral oylarida**

	<b>Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)</b>	<b>O‘sish sur’ati, % da</b>	<b>Jamiga nisbatan, % da</b>
<b>Toshkent sh.</b>	<b>2 935,2</b>	<b>104,1</b>	<b>100,0</b>
<i>tumanlar</i>			
<b>Bektemir</b>	<b>107,7</b>	<b>101,9</b>	<b>3,7</b>
<b>Mirzo Ulug‘bek</b>	<b>285,5</b>	<b>105,5</b>	<b>9,7</b>
<b>Mirobod</b>	<b>295,2</b>	<b>105,5</b>	<b>10,1</b>
<b>Olmazor</b>	<b>378,3</b>	<b>105,0</b>	<b>12,9</b>
<b>Sergeli</b>	<b>254,3</b>	<b>104,5</b>	<b>8,7</b>
<b>Uchtepa</b>	<b>235,7</b>	<b>104,3</b>	<b>8,0</b>
<b>Chilonzor</b>	<b>209,7</b>	<b>104,0</b>	<b>7,1</b>
<b>Shayxontohur</b>	<b>240,3</b>	<b>102,9</b>	<b>8,2</b>
<b>Yunusobod</b>	<b>321,8</b>	<b>103,5</b>	<b>11,0</b>
<b>Yakkasaroy</b>	<b>245,0</b>	<b>102,7</b>	<b>8,3</b>
<b>Yangihayot</b>	<b>136,6</b>	<b>101,6</b>	<b>4,7</b>
<b>Yashnobod</b>	<b>225,1</b>	<b>104,8</b>	<b>7,7</b>

\*Tumanlar bo‘yicha taqsimlangan hajjni qo’shgan holda



### Shaharda iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlari, % da

2020-yil yanvar-fevral

**21,1**



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

**19,5**



Fuqarolik obyektlarini qurish

**58,5**



Bino va inshootlarni qurish

**20,9**



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

**19,4**



Fuqarolik obyektlarini qurish

**59,7**



Bino va inshootlarni qurish

**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar-joy va yashash uchun mo`ljallangan hamda yashash uchun mo`ljallangan binolar qurish bo`yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




## Bino va inshootlar qurilishi

ulushi % da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **6,9 %** ni tashkil etib, 2020- yil ko'rsatkichga nisbatan **0,3 %** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yildagi ko'rsatkichga nisbatan **0,1 %** punktga kamayib, **65,9 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2020- yildagi ko'rsatkichga nisbatan **0,2 %** punktga kamayib, **27,2 %** ni tashkil etdi.






## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi % da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **27,6 %** ni tashkil etdi va 2020- yilga nisbatan **6,7 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **72,0 %** (**8,0 %** punktga kamayish)ni tashkil etdi.






## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari


ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yilga nisbatan **2,3 %** punktga kamaydi va **9,1%** ni tashkil etdi. Qolgan **90,9%** kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2020- yilga nisbatan **2,3 %** punktga ko‘paydi.





## Tumanlar kesimida qurilish ishlari jamiga nisbatan % da.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo'yicha tarkibida Olmazor (tumandagi qurilish hajmining **32,8** % ni tashkil etdi) va Yunusobod (mos ravishda **32,5** %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.



## Tumanlar kesimida qurilish ishlari 2021- yil yanvar-fevral oylarida

### Eng yuqori hajm

(mlrd. soʻm)

Olmazor  
378,3

1

2

Yunusobod  
321,8

Mirobod  
295,2

3



### Kichik hajm

(mlrd. soʻm)

Bektemir  
107,7

1

2

Yangihayot  
136,6

Chilonzor  
209,7

3





## TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

Toshkent shahar statistika boshqarmasi

Investitsiya va qurilish statistikasi bo‘limi

Nashr uchun mas’ul: D.Rustamov

Aloqa telefoni: (71) 203-88-19